

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBÍRKORLÍKNÍ DAVLAT TOMONÍDAN TARTÍBGA SOLÍSH ASOSLARÍ

D.Yuldashev

FarDU PhD., dots.

Ismoilova Nigoraxon

FarDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqola bugungi kundagi Yangi O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bosqichlari haqida fikr mulohazalar bildirildi

O`zbekiston Respublikasida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi mutasil oshib bormoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizda yangi ish o`rinlarini yaratish, yangi ichki mahsulot xajmini oshirish va budjetga soliq tushumlarini ko`paytirishda katta tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

Dastlab, tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish uchun meyoriy-huquqiy baza yaratildi. Ular qatorida O`zbekiston Qonunlari, Prezident Farmonlari, o`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkaması qarorlari va shu kabi qonunchilik xujjatlari kiradi. Tadbirkorlik rivojlanishiga bevosita ko`mak beruvchi, uni qo`llab-quvvatlovchi maxsus qo`mitalar va kengashlar: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Isloxotlar va investitsiyalar bo`yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi Kengashi; Oliy majlisning budjet va iqtisodiy islohotlar qo`mitasi; O`zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash davlat qo`mitasi; Davlat mulki qo`mitasi; Savdo-sanoat palatasi; Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi; Dehqon va fermer xo`jaliklari uyushmasi; Xunarmad uyushmasi va sug`urta tashkilotlari tashkil etildi.

Tadbirkorlarni soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi va statistika hisobotlarni topshirish tizimi soddalashtirildi. Tadbirkorlarning mahsulotlarini eksport qilish xajmini oshirishga qaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi. Imtiyozli va mikro kreditlar berish hamda boshlang`ich kapitalini shakllantirish uchun mablag` ajratish yo`li bilan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash ko`lami ham kengayib bormoqda. Soliqqa tortish sohasida imtiyozlar qo`llanildi. Tadbirkorlik uchun kasbiy ta`lim tizimi, axborot kommunikatsion tizim rivojlantirildi.

Keyingi davrda tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish uchun qonuniy-huquqiy baza tubdan yangilandi. Tadbirkorlik subyektlarini ximoya qilishda

sudlarning ro'li oshirildi, nazorat organlarining xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun qo'llaydigan ayrim vakolatlari sudlarga o'tkazildi. Ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash ishlarini sojialashtirildi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, bu soha faoliyatini rag'bantlashtirish, tadbirkorlik subyektlarining huquq va mayefaatlarini ishonchli ximoya qilishning mustaxkam huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida "Har bir shaxsiy mulkdor bo'lishga xaqli meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi" deb yozib o'tilgan.

Tadbirkorlik faoliyati xususiy mulk bilan bog'lik bo'lib, mulkka egalik qilish (mulkdor huquqining mulk egasi qo'lida saqlanib turishi), undan foydalanish (mul bo'lgan boyligni iqtisodiy faoliyatda qo'llab, xo'jalik jarayoniga kiritib, undan natija olish), uni tasarruf etish (mulkka bo'lgan boylik taqdirini mustaqil xal etish) qonun bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida iqtisodiyotning negizini xilma-xil mulk shakllari tashkil etish belgilab qo'yilgan. Tadbirkorlik ham iqtisodiy faoliyat turi sifatida tashkil qilinib,

53-modda quyidagicha bayon etilgan: "Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini xisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan babbarovar muxofoza etilishini kafolatlaydi" deb belgilangan.

"O'zbekiston Respublikasi Fuqaro'lik kodeksining normalarida ham tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga solish va kafolatlanishini mustaxkamlagan. Jumladan, kodeksning 164-moddasida, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkiga o'z xoxishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratligi qayd etilgan"³⁵. Umuman olganda, Fuqaro'lik kodeksining normalari tadbirkorlik subyektlarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini quyidagi qonunlar bilan tartibga solinadi hamda kafolatlanadi: "Mulkchilik to'g'risi"gi, "Tadbirkorlik faoliyatini erkinligi kafolatlari to'g'risida"gi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlarining davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi, "O'ilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Korxonalar to'g'risida"gi, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Tashqi iqtisodiy

³⁵ O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni

faoliyat to'g'risida"gi va shu kabí boshqa qonunlarda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy ximoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishini yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasida huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarlikni erkilashtirish to'g'risida"gi, Farmonlari hamda bu borada qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartiblari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va xisobga qo'yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida"gi va shu kabí boshqa qarorlarida tadbirkorlik subyektlariga imtiyozlar berilgan.

Mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida 4500 dan ortiq huquqiy normativ xujjatlar imzolandi.

Hususan, 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq respublikada davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish, xususiy mulkning ustuvorligini yanada kuchaytirish, biznes tashabbuslar, startaplarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks institutsional va tarkibiy islohotlar amalga oshirish maqsadida 2018-yil 11-apreldagi PF-5409-sonli "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"³⁶gi Farmoni, yurtimizda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinlik berish borasida boshlangan islohotlarni davom ettirish hamda qabul qilingan qonun hujjatlarining joylarda to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida 2019-yil 20-noyabrdagi PQ-4525-sonli "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mikrokreditlash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-sonli "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"³⁷gi qarori, 2021-yil 20-avgust kuni birinchi marta o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida 15-sentabrdagi PF-6314-sonli "Tadbirkorlik subyektlari

³⁶ www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi

³⁷ www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi

uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"³⁸gi Farmoni, tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlarini himoya qilishda sudlarning, ayniqsa ma'muriy sudlarning ro'lini kuchaytirish, ularni fuqaro va tadbirkorlarning haqiqiy himoyachisiga aylantirish maqsadida 2022-yilning 29-yanvardagi PQ-107-sonli "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqaro'lar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"³⁹gi qarori, hududlarda amalga oshirilayotgan tadbirkorlik loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik tashabbuslarining o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash orqali kichik va o'rta tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida 2022-yil 19-apreldagi PQ-212-sonli "Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴⁰gi qarori, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to'laqonli o'tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sonli "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"⁴¹gi Farmonlari yurtimizda tadbirkorlik va biznes muhitini keng qamrovli qo'llab-quvvatlash maqsadida barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Ushbu xujjatlar asosida tadbirkorlikni rivojlantirish borasida birinchidan, davlat tuzulmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada ko'proq cheklash, ikkinchidan, qasddan sodir etilmagan, uncha katta bo'lmagan huquqbuzarliklar uchun jazo choralarini kamaytirish va tadbirkor tomonidan yetkazilgan zararning o'rni to'liq qoplangan xollarda moliyaviy jazoni qo'llashdan voz kechish, uchinchidan, xususiy tadbirkorlarga zarur resurslarni sotib olish va o'z mahsulotlarini sotish bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytirish borasida boshlangan ishlarni davom ettirish,

³⁸ www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi

³⁹ www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi

⁴⁰ www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi

⁴¹ www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi

to'rtinchidan, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, bu sohaga moliyaviy, qo'shimcha soliq imtiyozlar va perferensiyalar berish eng muxim vazifalar sifatida belgilandi. Nazorat organlari tomonidan turli tekshirishlar yildan-yilga kamaydi, ularning reja asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi tadbirkorlarga erkin faoliyat olib borish imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni.
2. Tolametova Z.A. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi, - Toshkent " Fan va Tehnologiya". 2017. 400b
- 3 . www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi.